

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

SPORT SHARHLOVCHILARI NUTQIDA EMOTSIONAL-EKSPRESSIV BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Odilova Gulchiroy Xusniddin qizi

Andijon davlat chet tillari instituti, o'qituvchi.

e-mail: gulchiroyodilova97@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0009-3500-6924>

Annotatsiya.

Zamonaviy tilshunoslikda sport sharhlovchilari nutqi medial kommunikatsiyaning emotsional va pragmatik jihatdan eng faol nutq shakllaridan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sharhlovchilar tomonidan qo'llaniladigan emotsional-ekspressiv birliklar auditoriya bilan kommunikativ aloqa o'rnatish, sport voqealariga baho berish va milliy-madaniy qadriyatlarni verbal shaklda ifodalashda muhim vazifani bajaradi. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi sport sharhlovchilari nutqida uchraydigan emotsional-ekspressiv birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tavsifiy, qiyosiy-tipologik, lingvokulturologik, komponent hamda pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari ingliz sharhlovchilari nutqida individual baholash va verbal minimalizm, o'zbek sharhlovchilari nutqida esa kollektiv emotsionallik, obrazlilik va milliy baholash vositalari ustunlik qilishini ko'rsatdi. Olingan natijalar sport medalingvistikasi, pragmalingvistika va lingvokulturologiya rivojiga ilmiy hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: sport sharhlovchiligi, emotsional-ekspressivlik, lingvokulturologiya, media nutqi, pragmatika, metafora, qiyosiy tilshunoslik.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ЭКСПРЕССИВНЫХ ЕДИНИЦ В РЕЧИ СПОРТИВНЫХ КОММЕНТАТОРОВ (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Одилова Гулчирой Хусниддин кизи

Андижанский государственный институт иностранных языков, преподаватель.

Аннотация.

В современной лингвистике речь спортивных комментаторов приобретает особую научную значимость как одна из наиболее эмоционально и прагматически активных форм медиакommunikации. Особую роль играют используемые комментаторами эмоционально-экспрессивные единицы, которые способствуют установлению коммуникативного контакта с аудиторией, выражению оценки спортивных событий и вербализации национально-культурных ценностей. В статье проводится сравнительный анализ лингвокультурологических особенностей эмоционально-экспрессивных единиц, встречающихся в речи англоязычных и узбекоязычных спортивных комментаторов. В ходе исследования использованы описательный, сравнительно-типологический, лингвокультурологический, компонентный и прагматический методы анализа. Результаты исследования показали, что в речи англоязычных комментаторов преобладают индивидуальная оценочность и вербальный минимализм, тогда как для речи узбекоязычных комментаторов более характерны коллективная эмоциональность, образность и национально обусловленные средства оценки. Полученные результаты вносят научный вклад в развитие спортивной медиалингвистики, прагмалингвистики и лингвокультурологии.

Ключевые слова: спортивное комментирование, эмоциональная экспрессивность, лингвокультурология, медиаречь, прагматика, метафора, сравнительное языкознание.

LINGUOCULTURAL FEATURES OF EMOTIONAL AND EXPRESSIVE UNITS IN SPORTS COMMENTATORS' SPEECH (BASED ON ENGLISH AND UZBEK)

Odilova Gulchiroy Xusniddin qizi

Andijan State Institute of Foreign Languages, Lecturer.

Abstract.

In contemporary linguistics, sports commentators' speech has gained particular scholarly significance as one of the most emotionally and pragmatically dynamic forms of media communication. Emotional and expressive units used by commentators play an important role in establishing communicative interaction with the audience, evaluating

sporting events, and verbally representing national and cultural values. This article provides a comparative analysis of the linguocultural features of emotional and expressive units occurring in the speech of English- and Uzbek-speaking sports commentators. The study employs descriptive, comparative-typological, linguocultural, componential, and pragmatic methods of analysis. The findings indicate that individual evaluation and verbal minimalism predominate in the speech of English-speaking commentators, whereas Uzbek-speaking commentators tend to employ collective emotionality, imagery, and culturally specific evaluative devices. The findings contribute to the development of sports media linguistics, pragmalinguistics, and linguocultural studies.

Keywords: sports commentary, emotional expressiveness, linguocultural studies, media discourse, pragmatics, metaphor, comparative linguistics.

Kirish. Sport sharhlovchilari nutqining emotsional va kommunikativ xususiyatlari rus tilshunosligida ham alohida tadqiq qilingan. N. Smirnova sport translyatsiyalarida sharhlovchi nutqining emotsional intensivligi auditoriya diqqatini boshqaruvchi asosiy omillardan biri ekanini ta'kidlaydi [7]. Nikitina futbol sharhlari materiallari asosida verbal spontanlik va intonatsion urg'uning media ta'sirchanlikni oshirishini qayd etadi [8]. E. Kubryakova kognitiv tilshunoslik doirasida tezkor verbal reaksiya nutqiy tafakkurning dinamik modeli bilan bog'liqligini ilmiy asoslaydi [9].

M. Bakhtin nutq janrlari nazariyasida real kommunikativ vaziyatda shakllanuvchi nutq shakllarining individual va ijtimoiy tabiatini ochib beradi [9]. Ushbu yondashuv sport sharhlovchiligi nutqining jonli efir sharoitidagi verbal xususiyatlarini izohlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Olimning qarashlariga ko'ra, har qanday nutqiy faoliyat situativlik, adresatga yo'naltirilganlik va kommunikativ maqsad bilan belgilanadi. Sport sharhlovchiligi nutqida ham aynan mazkur omillar nutqning emotsional kuchi, ekspressiv intensivligi va verbal dinamizmini shakllantiradi. Ayniqsa, o'yin jarayonidagi keskin burilishlar, kutilmagan natijalar va dramatik epizodlar sharhlovchining spontan verbal reaksiyasini yuzaga keltiruvchi psixolingvistik triggerlar sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida sport sharhlovchilari nutqining lingvistik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ham ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan. M. Xolmatova ingliz va o'zbek futbol sharhlari materiallari asosida sharhlovchilar nutqining lingvopragmatik va stilistik xususiyatlarini tahlil qilib, sharhlovchi nutqida ekspressiv birliklar auditoriya bilan kommunikativ yaqinlik hosil qilishini qayd etadi [13]. N. Yuldasheva media muloqot tizimida verbal ta'sirchanlik vositalarini tadqiq etib, sport sharhlovchiligi nutqida emotsional birliklar tinglovchi psixologiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [14].

N. Rahmatullayeva medial matnlarda baholovchi birliklarning lingvokulturologik funksiyasini yoritib, sport sharhlarida milliy mentalitetni ifodalovchi verbal birliklar faol ishlatilishini ko'rsatadi [15]. H. Ismatullayeva ommaviy muloqot tilida emotsional-ekspressiv vositalarning pragmatik imkoniyatlarini o'rganib, sport sharhlovchilari nutqida auditoriyani ruhiy safarbar etuvchi birliklar faol qo'llanishini ilmiy asoslaydi [16].

Shuningdek, D. Kadirova sport mediasi tilida verbal improvizatsiya va sharhlovchi uslubining shakllanish mexanizmlarini tadqiq qilgan [17]. Olimning kuzatishlariga ko'ra, sharhlovchining individual nutq uslubi uning kasbiy tajribasi, til kompetensiyasi va milliy kommunikativ tafakkuri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, o'zbek sport sharhlovchilari nutqida xalqona obrazlilik, hissiy takrorlar, undov konstruksiyalar va baholovchi sifatlarning yuqori chastotada qo'llanishi milliy verbal madaniyatning media nutqdagi aksidir. Mazkur ilmiy qarashlar ingliz va o'zbek sport sharhlovchilari nutqidagi emotsional-ekspressiv birliklarni lingvokulturologik va pragmatik jihatdan qiyosiy o'rganishning nazariy asoslarini yanada mustahkamlaydi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy tilshunoslik, medialingvistika, lingvokulturologiya, pragmalingvistika hamda kognitiv tilshunoslikning zamonaviy ilmiy yondashuvlari tashkil etadi. Sport sharhlovchilari nutqida uchraydigan emotsional-ekspressiv birliklarni lingvistik jihatdan tahlil qilishda til faqat struktur sistema sifatida emas, balki real kommunikativ jarayonda shakllanuvchi, madaniy tajriba, emotsional idrok va pragmatik maqsad bilan chambarchas bog'liq bo'lgan dinamik hodisa sifatida talqin qilindi. Tadqiqot metodologiyasi bir necha ketma-ket bosqichlar asosida shakllantirildi. Dastlab tadqiqot materiali tanlandi, keyingi bosqichda lingvistik birliklar transkripsiya qilindi, undan so'ng struktur, semantik, pragmatik va lingvokulturologik tahlillar amalga oshirildi.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi professional sport sharhlari tanlab olindi. Ingliz tilidagi materiallar BBC Sport, Sky Sports, ESPN hamda Eurosport platformalarida efirga uzatilgan futbol translyatsiyalaridan olindi. O'zbek tilidagi materiallar esa Sport TV, Zo'r TV hamda milliy chempionat va xalqaro futbol uchrashuvlarining jonli efir sharhlaridan yig'ildi. Tadqiqot korpusiga jami 120 ta autentik sharh fragmenti kiritildi. Shundan 60 tasi ingliz tilidagi, 60 tasi o'zbek tilidagi audio-video nutq namunalari hisoblanadi. Tanlangan barcha materiallar jonli efir formatida bo'lgani sababli nutqning tabiiy spontanligi saqlab qolindi. Materiallarni yig'ish jarayoni 2024–2025-yillarda efirga uzatilgan futbol uchrashuvlari asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot uchun tanlangan nutq birliklari maxsus mezonlar asosida saralab olindi. Birinchi mezon spontanlik mezoni bo'lib, sharhlovchining oldindan tayyorlanmagan verbal reaksiyalari ajratib olindi. Masalan, gol urilishi, penalti vaziyati, himoyaviy xatolik, darvozabonning kutilmagan seyv harakati yoki o'yinning dramatik burilish nuqtalarida yuzaga kelgan verbal reaksiyalar tahlilga tortildi. Ikkinchi mezon emotsional-ekspressivlik mezoni bo'lib, undovlar, baholovchi birliklar, emotsional sifatlari, kuchaytirgichlar va intonatsion urg'u bilan birga qo'llanilgan nutq fragmentlari tanlab olindi. Uchinchi mezon metaforik birliklar mezoni bo'lib, sharhlovchi tomonidan sport voqealarini obrazli ifodalashda ishlatilgan metaforik konstruksiyalar saralandi. To'rtinchi mezon auditoriyaga ta'sir mezoni bo'lib,

tinglovchining hissiy reaksiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi verbal birliklar alohida korpusga kiritildi.

Tadqiqotning asosiy metodlaridan biri qiyosiy-tipologik tahlil metodi bo'ldi. Ushbu metod yordamida ingliz va o'zbek sport sharhlovchilari nutqidagi emotsional-ekspressiv birliklarning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Tahlil davomida ikki tilning struktur qurilishi, sintaktik ixchamlik darajasi, verbal reaksiyalarning semantik zichligi hamda ekspressiv birliklarning chastotasi qiyoslandi. Natijada ingliz sharhlovchilari nutqida qisqa sintaktik modellari va verbal iqtisod tamoyili faol ekanligi, o'zbek sharhlovchilari nutqida esa emotsional kengayish va obrazli ifodalarning ustunligi kuzatildi.

Lingvokulturologik tahlil tadqiqotning markaziy metodlaridan biri sifatida qo'llanildi. Mazkur metod orqali sharhlovchilarning verbal reaksiyalarida milliy madaniy kodlarning aks etishi o'rganildi. Ingliz sharhlovchilari nutqida individual muvaffaqiyat, tezkorlik va professional mahorat konseptlari faol ifodalangan bo'lsa, o'zbek sharhlovchilari nutqida jamoaviylik, jasorat, matonat va milliy iftixor bilan bog'liq verbal birliklarning faol qo'llanilishi aniqlandi. Masalan, ingliz sharhlovchilarida *"He is on fire"*, *"What a killer strike"* kabi birliklar, o'zbek sharhlovchilarida esa *"Sherdek hujum qildi"*, *"Maydon qahramoni"* kabi obrazli birliklar qayd etildi. Bu farqlar milliy kommunikativ tafakkurning media nutqdagi aksidir.

Pragmatik tahlil metodi orqali sharhlovchi nutqining auditoriyaga ta'sir mexanizmlari o'rganildi. Bunda verbal reaksiyalarning kommunikativ maqsadi, baholovchi funksiyasi, emotsional rezonans hosil qilish darajasi va tinglovchining psixologik jalb etilishiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari ingliz sharhlovchilari ko'proq informativlik va vaziyatni tezkor yetkazishga yo'naltirilgan verbal reaksiyalarni qo'llashini, o'zbek sharhlovchilari esa auditoriya bilan hissiy yaqinlik hosil qiluvchi birliklarga ko'proq murojaat qilishini ko'rsatdi.

Komponent tahlil metodi yordamida emotsional-ekspressiv birliklarning ichki semantik tuzilishi o'rganildi. Har bir verbal reaksiya tarkibidagi baholash komponenti, emotsional komponent, pragmatik komponent va lingvokulturologik komponent alohida ajratib tahlil qilindi. Misol uchun, *"Incredible save"* birligida baholash va hayrat komponentlari ustun bo'lsa, *"Bu haqiqiy mo'jiza"* birligida emotsional baholash va madaniy ekspressivlik komponentlari faol ekanligi aniqlandi.

Lingvostatistik tahlil ham tadqiqot metodologiyasining muhim tarkibiy qismi bo'ldi. Tadqiqot davomida emotsional-ekspressiv birliklarning chastotasi, sintaktik uzunligi, metaforik birliklarning takrorlanish darajasi va auditoriyaga ta'sir ko'rsatish ko'rsatkichlari raqamli tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, ingliz sharhlovchilari nutqida o'rtacha verbal reaksiya uzunligi 3,4 so'zni, o'zbek sharhlovchilari nutqida esa 5,9 so'zni tashkil etdi. Emotsional baholash birliklari ingliz tilida 54 foiz, o'zbek tilida esa 87 foiz chastotada kuzatildi.

Shunday qilib, qo'llangan metodologik kompleks sport sharhlovchilari nutqidagi emotsional-ekspressiv birliklarni struktur, semantik, pragmatik va lingvokulturologik aspektlarda chuqur tahlil qilish imkonini berdi hamda ingliz va o'zbek tillaridagi sport sharhlovchiligi nutqining milliy va universal xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

TADDIQOT NATIJALARI

Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillaridagi sport sharhlovchilari nutqidan to'plangan 120 ta autentik sharh fragmenti lingvistik va lingvostatistik jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalari sport sharhlovchilari nutqida emotsional-ekspressiv birliklar nafaqat voqeani verbal ifodalash vositasi, balki auditoriya bilan kommunikativ aloqani shakllantiruvchi, milliy madaniy kodlarni aks ettiruvchi va pragmatik ta'sirni kuchaytiruvchi markaziy birliklar ekanini ko'rsatdi.

Tadqiqotning birinchi natijasi sifatida ingliz sport sharhlovchilari nutqida sintaktik ixchamlik va verbal minimalizm ustunligi aniqlandi. Tahlil qilingan 60 ta ingliz tilidagi sharh fragmentlarining 49 tasida qisqa emotsional konstruksiyalar uchradi. *"What a finish"*, *"Brilliant save"*, *"Outstanding strike"*, *"Absolutely incredible"* kabi verbal reaksiyalar ikki yoki uch komponentli sintaktik modellarda shakllangani kuzatildi. Ch. Ferguson sport sharhlovchiligi nutqida verbal iqtisod tamoyili asosiy kommunikativ belgilardan biri ekanini qayd etadi [1]. Tadqiqot korpusida ingliz sharhlovchilari nutqida sintaktik ixchamlik 82 foiz ko'rsatkichni tashkil etdi. Bu ingliz sport medial nutqida axborotni tez va aniq uzatish strategiyasi ustunligini ko'rsatadi.


Ikkinchi natija sifatida o'zbek sport sharhlovchilari nutqida emotsional-ekspressivlik va baholovchi birliklarning yuqori faolligi aniqlandi. O'zbek tilidagi 60 ta sharh fragmentining 53 tasida emotsional kuchaytirgichlar, undovlar va obrazli birliklar faol qo'llangani kuzatildi. *"Bu haqiqiy mo'jiza"*, *"Qanday ajoyib zarba"*, *"Muxlislar oyoqqa turdi"*, *"Bu tarixiy lahza"* kabi verbal reaksiyalar sharhlovchi nutqining auditoriya bilan hissiy yaqinlik hosil qilishga yo'naltirilganini ko'rsatdi. Tahlil natijalariga ko'ra, o'zbek sharhlovchilari nutqida emotsional-ekspressiv birliklar 88 foiz chastotada kuzatildi. Bu holat o'zbek kommunikativ madaniyatida emotsional rezonans va kollektiv hissiy birdamlikning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Muhabbat Xolmatova sport sharhlovchilari nutqida ekspressiv birliklar auditoriya bilan kommunikativ yaqinlikni kuchaytirishini ta'kidlaydi [13].

Uchinchi natija metaforik birliklarning qo'llanishida lingvokulturologik tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Ingliz sharhlovchilari nutqida *"He is on fire"*, *"A killer pass"*, *"Magic touch"*, *"Ice cold finish"* kabi metaforik birliklar faol qo'llanildi. Ushbu birliklar, asosan, individual mahorat, sovuqqonlik va professional ustunlik konseptlari bilan bog'liq ekanligi aniqlandi [6]. O'zbek sharhlovchilari nutqida esa *"Sherdek hujum qildi"*, *"Temirdek himoya"*, *"Maydon qahramoni"*, *"Olovdek o'yin"* kabi birliklar ko'proq uchradi. Bu birliklarda jasorat, matonat, jamoaviylik va milliy iftixor semantik komponentlari ustunlik qilishi kuzatildi.

To'rtinchi natija auditoriyaga pragmatik ta'sir strategiyalarida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Ingliz sharhlovchilarida *"Still alive"*, *"Game on"*, *"Danger here"* kabi qisqa verbal signallar tinglovchining diqqatini vaziyatga qaratishga xizmat qildi. O'zbek sharhlovchilarida esa *"Butun stadion hayajonda"*, *"Bugun tarix yozilmoqda"*, *"Muxlislar bunga ishonmayapti"* kabi birliklar tinglovchida hissiy identifikatsiya hosil qilishi kuzatildi. P. Skannell media nutqida

ishtirok effekti auditoriyaning psixologik jalb etilishiga xizmat qilishini qayd etadi [10]. Tadqiqot natijalari o'zbek sharhlovchilari nutqida auditoriyaga pragmatik ta'sir ko'rsatkichi 86 foizni, ingliz sharhlovchilarida esa 59 foizni tashkil etganini ko'rsatdi.

Beshinchi natija lingvostatistik tahlil orqali aniqlandi. Ingliz tilidagi emotsional verbal reaksiyalar o'rtacha 3,4 so'zdan tashkil topgani qayd etildi. O'zbek tilidagi verbal reaksiyalar esa o'rtacha 5,9 so'zni tashkil etdi. Metaforik birliklar ingliz sharhlovchilari nutqida 68 foiz, o'zbek sharhlovchilari nutqida 79 foiz chastotada uchrashi aniqlandi. Sintaktik ixchamlik ingliz tilida yuqori, emotsional kengayish esa o'zbek tilida dominant xususiyat sifatida namoyon bo'ldi.



1-rasm. Sport sharhlovchilari nutqida emotsional ekspressiv birliklarning qiyosiy lingvostatistik ko'rsatkichlar

Lingvostatistik tahlil natijasida ingliz va o'zbek sport sharhlovchilari nutqida qo'llanilgan emotsional ekspressiv birliklarning chastotasi, sintaktik qurilishi, metaforik ifodalanish darajasi hamda auditoriyaga pragmatik ta'sir ko'rsatish xususiyatlari qiyosiy ravishda aniqlandi. Olingan natijalarning miqdoriy ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Ko'rsatkich	Ingliz tili	O'zbek tili
Sintaktik ixchamlik	82%	46%
Emotsional ekspressivlik	54%	88%
Metaforik birliklar	68%	79%
Auditoriyaga pragmatik ta'sir	59%	86%
O'rtacha verbal reaksiya uzunligi	3.4	5.9

Jadvalda aks etgan natijalar ingliz sport sharhlovchilari nutqida sintaktik ixchamlik va verbal tejamkorlik ko'rsatkichlari yuqori ekanini, o'zbek sport sharhlovchilari nutqida esa emotsional-ekspressivlik, metaforik obrazlilik hamda auditoriyaga pragmatik ta'sir ko'rsatish birliklari faolroq qo'llanishini ko'rsatdi. Mazkur tafovutlar ikki tilning struktur xususiyatlari bilan bir qatorda milliy kommunikativ tafakkur va media nutq strategiyalaridagi farqlar bilan ham izohlanadi.

TAHLIL

Tadqiqot davomida olingan lingvistik va lingvostatistik natijalar sport sharhlovchilari nutqida emotsional-ekspressiv birliklar kommunikativ ta'sirchanlikning markaziy komponentlaridan biri ekanini ko'rsatdi. Olingan empirik ma'lumotlar jahon va rus tilshunosligida ilgari surilgan nazariy qarashlar bilan qiyoslanganda, ayrim universal xususiyatlar bilan bir qatorda milliy kommunikativ tafakkur bilan bog'liq sezilarli farqlar ham aniqlandi. Ayniqsa, ingliz va o'zbek sport sharhlovchilari nutqida verbal reaksiyalarning struktur qurilishi, emotsional intensivligi, auditoriyaga ta'sir darajasi va lingvokulturologik ifodalanishi bir-biridan farq qilishi kuzatildi.

Jadval va diagrammada aks etgan statistik natijalar ingliz sport sharhlovchilari nutqida sintaktik ixchamlik 82 foizni tashkil etganini ko'rsatdi. Ushbu natija Ch. Ferguson tomonidan ilgari surilgan sport sharhlovchiligi nutqining registr xususiyatlari haqidagi nazariya bilan mos keladi. Olim sport sharhlovchiligi nutqida qisqa konstruksiyalar, ellipsis va tezkor verbal reaksiya auditoriyaga axborotni maksimal tezlikda yetkazishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [1]. Tadqiqot materiallarida *"What a finish"*, *"Outstanding save"*, *"Game on"* kabi birliklarning yuqori chastotada qo'llanishi mazkur nazariyaning amaliy tasdig'i bo'ldi. Ingliz sharhlovchilari ko'proq informativlik, aniqlik va tezkorlikka yo'naltirilgan kommunikativ modeldan foydalanishi kuzatildi.

O'zbek sport sharhlovchilari nutqida esa sintaktik ixchamlik ko'rsatkichi 46 foizni tashkil etgani holda, emotsional-ekspressivlik 88 foizga yetgani aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlar sharhlovchi nutqida axborot uzatish bilan bir qatorda tinglovchining hissiy idrokini boshqarish strategiyasi ustun ekanini ko'rsatadi. Muhabbat Xolmatova sport sharhlovchilari nutqida ekspressiv birliklar auditoriya bilan kommunikativ yaqinlik hosil qilishini qayd etadi [13]. Tadqiqot korpusida *"Bu haqiqiy mo'jiza"*, *"Qanday ajoyib zarba"*, *"Muxlislar hayajonda"* kabi birliklarning yuqori chastotada uchrashi ushbu ilmiy qarash bilan to'liq mos tushdi.

Metaforik birliklarning lingvostatistik tahlili ham muhim ilmiy natijalarni ko'rsatdi. Diagrammada ingliz sharhlovchilari nutqida metaforik birliklar 68 foiz, o'zbek sharhlovchilari nutqida esa 79 foiz ko'rsatkichni tashkil etgani aniqlandi. J. Chovanek sport sharhlovchiligi nutqida metaforik birliklar o'yin drammatizmini kuchaytiruvchi asosiy verbal vosita ekanini ta'kidlaydi [6]. Ingliz sharhlovchilari nutqida *"He is on fire"*, *"Ice cold finish"*, *"Magic touch"* kabi birliklar individual mahorat va professional ustunlik konseptlarini ifodaladi. O'zbek sharhlovchilari nutqida esa *"Sherdek hujum qildi"*, *"Maydon qahramoni"*, *"Temirdek himoya"* kabi birliklar jamoaviylik, jasorat va milliy iftixor bilan bog'liq semantik maydonni yuzaga keltirdi. Bu holat lingvokulturologik tafakkurdagi farqlar bilan izohlanadi.

Auditoriyaga pragmatik ta'sir strategiyalarida ham sezilarli tafovutlar kuzatildi. Diagrammada ingliz sharhlovchilarida pragmatik ta'sir ko'rsatkichi 59 foizni, o'zbek sharhlovchilarida esa 86 foizni tashkil etdi. P. Scannell media nutqining kommunikativ tuzilishi jismonan mavjud bo'lmagan auditoriyani ham muloqot jarayoniga jalb etishga

yo'naltirilishini, natijada tinglovchi yoki tomoshabinda kommunikativ ishtirok va "birgalikda hozir bo'lish" effektini yuzaga keltirishini ta'kidlaydi [10]. Tadqiqot materiallarida ingliz sharhlovchilari "Danger here", "Still alive" kabi signal xarakterli birliklardan foydalangan bo'lsa, o'zbek sharhlovchilari "Bugun tarix yozilmoqda", "Butun stadion oyoqqa turdi" kabi emotsional birliklar orqali tinglovchini voqeaga ruhiy jalb etgani kuzatildi.

Rus tilshunosligida V. Shakhovskiy emotsional birliklar nutqning psixologik ta'sirini kuchaytiruvchi markaziy vosita ekanini ta'kidlaydi [11]. Tadqiqot natijalari aynan shu nazariyani tasdiqladi. Ayniqsa, o'zbek sport sharhlovchilari nutqida undovlar, takroriy konstruksiyalar va emotsional baholash birliklarining yuqori chastotada uchrashi tinglovchining hissiy rezonansini kuchaytirishi aniqlandi.

Shunday qilib, jadval va diagrammada aks etgan statistik ko'rsatkichlar, shuningdek, olingan lingvistik natijalar ingliz sport sharhlovchilari nutqida verbal ixchamlik va informativlik, o'zbek sport sharhlovchilari nutqida esa emotsional-ekspressivlik, metaforik obrazlilik va auditoriya bilan psixologik yaqinlik dominant ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Mazkur tafovutlar ikki xalqning kommunikativ madaniyati, media nutq modeli va milliy lingvokulturologik tafakkuri bilan bevosita bog'liq ekanligi dalillandi.

XULOSA. Sport sharhlovchilari nutqida emotsional-ekspressiv birliklarning ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida olib borilgan qiyosiy tadqiqoti sport medial nutqining ko'p qatlamli kommunikativ tabiatini aniqlash imkonini berdi. Olib borilgan tahlillar natijasida sport sharhlovchiligi nutqi real vaqt sharoitida shakllanuvchi, verbal improvizatsiya, psixologik ta'sirchanlik va madaniy identifikatsiya elementlarini birlashtiruvchi maxsus nutqiy model ekanligi aniqlandi. Tahlil jarayonida ingliz sport medial muhitida axborotning operativ uzatilishi, sintaktik zichlik va verbal optimallik kommunikativ ustuvorlik kasb etishi kuzatildi. O'zbek sport sharhlovchiligi amaliyotida esa tinglovchining emotsional idrokiga ta'sir ko'rsatish, voqeani obrazli ifodalash va jamoaviy ruhni faollashtirishga xizmat qiluvchi ekspressiv birliklar dominantligi aniqlandi. Bu farqlar ikki tilning grammatik tuzilishidan ko'ra, milliy media madaniyati va kommunikativ tafakkur modeli bilan kuchliroq bog'liqligi bilan xarakterlandi. Lingvokulturologik tahlil sport sharhlovchilari nutqida metaforik birliklar, baholovchi konstruksiyalar va undov shakllari milliy mental modelning verbal ko'rinishi sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Ingliz tilida individual natija, shaxsiy ustunlik va professionalizm konseptlari faol voqelashgan bo'lsa, o'zbek tilida jamoaviylik, jasorat, fidoyilik va milliy iftixor bilan bog'liq semantik maydon ustunligi kuzatildi. Pragmatik kuzatishlar sharhlovchi nutqidagi verbal tanlov auditoriyaning psixologik holati, sport voqeasining dinamikasi va kommunikativ vaziyat bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Ayniqsa, jonli efir sharoitida yuzaga keladigan spontan reaksiyalar sharhlovchining til kompetensiyasi, kasbiy tajribasi va individual nutq strategiyasi bilan shakllanishi aniqlandi. Mazkur tadqiqot natijalari sport sharhlovchiligi nutqini faqat media diskurs sifatida emas, balki lingvokulturologik, pragmatik va psixolingvistik hodisa sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatdi. Olingan ilmiy xulosalar sport medialingvistikasi, qiyosiy tilshunoslik hamda diskurs tahlili yo'nalishlarida olib boriladigan keyingi tadqiqotlar uchun nazariy va metodologik asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ferguson C. A. Sports Announcer Talk: Syntactic Aspects of Register Variation // *Language in Society*. – 1983. – Vol. 12, No. 2. – P. 153–172. – P. 156. – DOI: 10.1017/S0047404500009787. – URL: [Cambridge University Press](#)
2. Шаховский В. И. Лингвистическая теория эмоций: монография. – Москва: Гнозис, 2008. – 414, [1] с. – С. 146–148. – ISBN 978-5-94244-019-0. – URL: [Российская государственная библиотека](#)
3. van Dijk T. A. *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. – Cambridge; New York: Cambridge University Press, 2008. – 267 p. – P. 112. – ISBN 978-0-521-89559-0. – URL: [Cambridge University Press](#)
4. Chovanec J. *The Discourse of Online Sportscasting: Constructing Meaning and Interaction in Live Text Commentary*. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2018. – XXII, 303 p. – (Pragmatics & Beyond New Series; Vol. 297). – DOI: 10.1075/pbns.297. – URL: [John Benjamins Publishing Company](#)
5. Scannell P. (ed.). *Broadcast Talk*. – London: SAGE Publications, 1991. – 224 p. – P. 83. – ISBN 978-0-8039-8374-8. – URL: [SAGE Publications](#)
6. Бахтин М. М. Проблема речевых жанров // *Эстетика словесного творчества*. – 2-е изд. – Москва: Искусство, 1986. – С. 250–296. – URL: [Российская государственная библиотека](#)
7. Смирнова Н. В. Исследование текста и дискурса СМИ методами контрастивной политологической лингвистики // *Язык СМИ и политика* / под ред. Г. Я. Солганика. – Москва: Издательство Московского университета; Факультет журналистики МГУ, 2012. – С. 863–943. – ISBN 978-5-211-06291-7. – URL: <https://istina.ficp.ac.ru/publications/article/1202535/>
8. Никитина Э. Г. *Язык спортивного репортажа регионального телевидения и специфика его воздействия: автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10.02.19*. – Ижевск, 2014. – 24 с. – URL: <https://www.prlib.ru/item/1345415>.
9. Кубрякова Е. С. *Язык и знание: на пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира*. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 555 с., [1] л. портр. – С. 312–315. – ISBN 5-94457-174-8. – URL: [Национальная электронная библиотека](#)
10. Scannell P. (ed.). *Broadcast Talk*. – London: SAGE Publications, 1991. – 224 p. – URL: https://books.google.com/books/about/Broadcast_Talk.html?id=AL0ZmM_H8gEC